

# STEP CONFERENCE



## TIBBIY XIZMATLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

**Qodirov Farrux Ergash o'g'li**

“Axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti, mustaqil tadqiqotchi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Qarshi filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamizda tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish borasida qanday chora tadbirlar va islohotlar olib borilayotganligi haqida fikr mulohazalar hamda ma'lumotlar keltirilgan. Maqola Iqtisodiyot vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining axborot xizmati yordamida tayyorlandi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiy xizmatlar, samaradorlikni oshirish, aholi turmush darajasi, sog'liqni saqlash tizimi, tez tibbiy yordam.

Yurtimizda aholi turmush darajasini yanada yaxshilash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish borasida tom ma'noda yangilanish va rivojlanish jarayonlari kechmoqda. Bu, albatta, sog'liqni saqlash tizimining shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga ham taalluqlidir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan har bir ma'ruza va nutqlarida, uchrashuvlarda xalqimizni rozi qilish uchun, eng avvalo, sifatli tibbiy xizmatga bo'lgan talabni qondirish nihoyatda zarurligini kuyunchaklik bilan bot-bot ta'kidlanmoqda. Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida matbuot anjuman o'tkazildi. Anjuman, mazkur sohada so'nggi paytlarda olib borilayotgan islohotlar, xususan Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash

# STEP CONFERENCE



masalalariga qaratildi.

Shoshilinch tibbiy yordam haqida so‘z borganda biz, avvalo, kafolatlangan, sifatli va tezkor tibbiy yordamni tasavvur qilamiz. Bugun yurtimizda ushbu sohani rivojlantirish yo‘lida belgilangan vazifalar va berilayotgan imtiyozlar, soha uchun ajratilayotgan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar tizim mutaxassislari olib borayotgan ilmiy izlanishlarning saviyasini yuksak darajada oshirish, shoshilinch holatlarda diagnostika va davolashning yangi istiqbolli usullarini ishlab chiqish, rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu esa tez tibbiy yordam xizmatining sifat va samaradorligini oshirish, aholining har bir murojaatiga amaliy yordam bilan javob qaytarish, eng muhimi, xalqimizni ushbu tizim faoliyatidan rozi bo‘lishiga erishishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagи “Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2868 qarori, tez tibbiy yordam xizmatining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, uning amaliyotiga zamonaviy ilmiy-texnik vositalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarining boshqa vazirliklar va idoralarning shoshilinch xizmatlari bilan o‘zaro tezkor hamkorlikning samarali mexanizmlarini joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shoshilinch va tez tibbiy yordam sifatini yanada takomillashtirish hamda ularni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va Qaroriga asosan tez tibbiy yordam (TTYO) xizmatini dori vositalari bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan mablag‘lar 2 barobarga oshirildi, dori vositalarini markazlashgan holda ta'minlanish tizimi yo‘lga qo‘yildi. TTYO xizmatini avtotransport vositalari bilan ta'minlash maqsadida sotib olish rejalashtirilgan 1200 dona avtomashinadan 364 dona “DAMAS AMB” avtomashinalar xarid qilindi.

# STEP CONFERENCE



Tadbir mamlakatimizda shoshilinch va tez tibbiy yordam sohasida qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlar mazmun-mohiyatini chuqurroq o'rganish, yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklardan aholini yaqindan tanishtirish hamda tizim oldida turgan vazifalar va istiqboldagi rejalarни muhokama qilish maqsadida tashkil etildi. Tez tibbiy yordam xizmati o'z oldiga aholiga malakali ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologiyali shoshilinch, tez va kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda tibbiy xizmat ko'rsatish, samaradorligi bo'yicha jahon talablariga mos keladigan shoshilinch tibbiy yordam tizimini tashkil etish, xorijiy turdosh tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'ygan.

Eng asosiysi, soha rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar natijasida shoshilinch tibbiy yordam tizimida yiliga 600 ming nafardan ziyod bemorga yuqori malakali statsionar va 1 million nafardan ortiq bemorga ambulator yordam hamda 7 milliondan ziyod chaqiriqlar bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda. Bundan tashqari, shoshilinch holatlarda tibbiy yordam brigadasi ishini tashkillashtiruvchi asosiy bo'g'in - tez yordam xizmati dispetcherlari qayta o'qitilib, ularga nisbatan talablar ham oshirildi. Endi dispetcherlarning kasbiy mahorati va malakasini mustahkamlash uchun ular qayta o'qitiladi. Chunki bugungi kun dispetcherining vazifasi faqat murojaatni yozib olib, uni kerakli mutaxassisga yetkazish emas, zarur holatda u murojaat qiluvchiga tez tibbiy yordam brigadalari yetib borguniga qadar ko'rsatilishi lozim bo'lgan birinchi tibbiy yordam bo'yicha maslahatlar bera olishi ham kerak.

Olib borilayotgan islohotlarning yana bir ahamiyatli jihat shundaki, birlamchi tibbiy bo'g'inda tibbiy xizmatning tezkorligini ta'minlash va shu orqali shoshilinch va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatga tushayotgan yuklamalarni yengillashtirish maqsadida yaqinda poytaxtimizdag'i jami 60 ta shahar oilaviy poliklinikalarining har biriga ikkitadan, jami 120 dona "DAMAS" rusumli avtomashinalar topshirildi. Endilikda bemorlarning uyiga borib, eng kerakli tibbiy muolajalarni amalga

# STEP CONFERENCE



oshirish, zarur holatlarda ularni oilaviy poliklinika yoki boshqa tibbiyot muassasasiga yetkazib borish xamda patronaj xizmatini ko‘rsatish kabi vazifalar o‘z vaqtida, kechiktirilmay amalga oshiriladi. Avtomashinalar o‘z hududi bo‘ylab harakatlangani bois, yo‘llar tirbandligidan kelib chiqadigan tez yordam birigadalarining kechikishi kabi holatlarning oldi ham olinadi.

Matbuot anjumani davomida mazkur tizimning bugungi holati, tez tibbiy yordam xizmatining sifat va samaradorligini oshirish, shoshilinch tibbiy yordam sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish hamda bu borada xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan belgilangan aniq vazifalar ijrosi haqida ham so‘z yuritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-иловаси «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси».Lex.uz

Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018. <http://president.uz>. расмий сайти.

Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li. ECONOMETRIC MODELING OF THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION / Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2022/5/9. 1.1 Economical sciences.

Farrux Qodirov, Xudayar Muhibdinov. Features that increase efficiency in the provision of medical services and factors affecting them. 2022/7/30 журнал Ta'lrim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 2 Том, 7 Номер страницы 192-199.